

## PRESS-RELIZ

Respublikamizda so‘nggi besh yil davomida, ya‘ni yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar asrlarga arzigulik mazmun va samara kasb etmoqda. Ta‘lim sohasini, ayniqsa, oliy ta‘lim sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. “Yangi O‘zbekiston — ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish choralari belgilandi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bugungi kunda respublikamizda oliy ta‘lim tizimi qamrovini kengaytirish hamda muqobil ta‘lim-tarbiya infratuzilmasini shakllantirishda xususiy ta‘lim muassasalarining roli va o‘rni ortib bormoqda. Mamlakatimizda xususiy universitetlar eng avvalo, xorijda o‘qishga stixiyali ravishda ketish oqimini kamaytirdi. Xususiy oliy ta‘lim muassasalari faoliyati ta‘lim bozorida sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Albatta, xususiy oliy ta‘lim muassasasi o‘z obro‘si va imidjini oshirishdan manfaatdor, bitiruvchilarning jamiyatda va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi bosh ko‘rsatkich hisoblanishini hayotning o‘zi isbotlab berdi.

So‘nggi yillarda qisqa vaqt ichida O‘zbekiston ta‘lim maydonida “Profi University” o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘ldi. Mazkur Universitet ta‘lim orqali har tomonlama tanqidiy fikrlay oladigan o‘z bilimi va salohiyati bilan o‘zining va atrofdagilarining hayotini yaxshilay oladigan kadrlarni tayyorlash borasida qator ijobiy yutuqlarga erishmoqda. Universitetda hozirda umumiy hisobda 100 dan ortiq professor-o‘qituvchi faoliyat yuritib, 1 nafar akademik, 14 nafar fan doktori (DSc), 41 nafar fan nomzodi (PhD) professor-o‘qituvchidan iborat. Universitetda psixologiya, pedagogika yo‘nalishlari bo‘yicha 30 nafardan ortiq professor-o‘qituvchilar mustaqil izlanuvchi sifatida doktorlik dissertatsiyasini tayyorlamoqda. Universitetda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ustuvor strategik vazifalardan biri sifatida belgilangan bo‘lib 30 dan ortiq xorijiy oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan memorandum va shartnomalar asosida o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Universitetda har yili yangi ta‘lim yo‘nalishlari tashkil qilinib, jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga hissa qo‘shmoqda.

Bugun “Profi University” da tashkil etilgan “Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi konferensiya ham yuqoridagi fikrimizning yorqin dalili hisoblanadi. Mazkur konferensiyani O‘zbekiston O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘zosi, psixologiya fanlari doktori, akademik Shaumarov G‘ayrat Bahramovichning ilmiy maktabi doirasida o‘tkazilayotgan yirik xalqaro tadbir sifatida e‘tirof etish mumkin.

Konferensiyada ishtirok etish uchun 30 nafardan ortiq xorijiy mutaxassislar va 300 nafardan ortiq respublikamiz professor-o‘qituvchilari va ilmiy xodimlar tomonidan ilmiy maqolalar taqdim qilingan. Bu o‘z navbatida jamiyat taraqqiyotida oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an‘analarni avaylab-asrash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirishning psixologik mazmunini oshirishga qiziqish katta ekanligi ko‘rinib turibdi.

Konferensiyaning yalpi majlisida xorijiy mutaxassislarning oila psixologiyasining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ma‘ruzalari taqdim qilinib, bugungi kunda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish jarayonlarida psixologiya fani sohasidagi yutuqlar ham yuksak e‘tirof etildi. Xususan, Rossiyalik mutaxassislardan psixologiya fanlari doktori, professor, Rossiya ta‘lim akademiyasi Korreksion pedagogika institutining ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari I.A.Korobeynikov nogiron bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy va psixologik muammolari yuzasidan, psixologiya fanlari nomzodi O.A.Mitina oilaviy hayotda shaxsning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadigan psixologik omillar to‘g‘risida tahliliy ma‘lumotlarni taqdim qilgan bo‘lsalar, Psixologiya fanlari nomzodi, M.Tank nomidagi Belarus davlat pedagogika universiteti dotsenti L.N.Puzirevich zamonaviy oila shakllanishining psixologik mazmunini ochib berdi, Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasi Pedagogika instituti katta ilmiy xodimi, psixologiya fanlari nomzodi V.P.Chudakova shaxs va oila psixologik salomatligining muhim xususiyatlarini yoritib berdi.

Bulardan tashqari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘zosi, akademik, “Profi University” rektori G‘.B.Shaumarovning “Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari”, psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimovanning “O‘zbekistonda oilaviy hayot psixologiyasi, ma’naviyatli oila, oilalarni ijtimoiy himoyalash omillari” mavzusidagi, psixologiya fanlari doktori X.Abdusamatovning “Shaxsning emotsional farovonligiga ta’sir qiluvchi psixologik sindromlar haqida” mavzusidagi, psixologiya fanlari doktori Ye.S.Suletbaevaning “Qoraqalpoq yoshlarini oilaviy hayotga tayyorlashning dolzarb muammolari”, psixologiya fanlari doktori, professor K.Farfiyevaning “O‘spirinlar ilmiy-innovatsion tafakkurini o‘rganishning psixologik tahlili”, psixologiya fanlari doktori, professor U.Qodirovning “O‘zbek oilasining ayrim etnopsixologik xususiyatlari” mavzusidagi ma’ruzalari ham ishtirokchilar orasida qizg‘in munozaralarga sabab bo‘ldi.

Shuningdek, xalqaro konferensiyada oila institutining dolzarb muammolari, uning sabab va omillari, soha instituti transformatsiyasi o‘z holiga tashlansa qanday ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma’naviy, ijtimoiy-psixologik asoratlarga, oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida ilmiy bahs olib borildi. Oila institutini mustahkamlash, mahalliy yerli xalqlar oilasini turli noxush transformatsiyalardan saqlash. Oilaga asrlar davomida xizmat qilib kelayotgan milliy, umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, oilada sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash, orqali bir qator kasalliklar (psixogen etalogiyaga ega bo‘lgan)ning oldini olish, O‘zbekiston xalqini yanada baxtli va yashashda oilaga psixologik yordam ko‘rsatish, hamma yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash yo‘llari muhokama qilindi. Jamiyatda erishilayotgan yutuqlarning barchasi asosida oila, uning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va eng muhimi psixogenetik omili yotganligi hayotiy misollar bilan ilmiy asoslab berildi. Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev oila masalasiga juda katta e’tibor qaratganligi e’tirof etildi.

Munozara va tahlillar davomida jahonda oila psixologiya fani ham qator o‘z ilmiy yechimini kutayotgan ayrim muammolar mavjudligi qayd etildi. Raqamlashtirish sharoitida oila a‘zolari o‘rtasida muloqotdagi qiyinchiliklar, moliyaviy muammolar tufayli yuzaga keladigan nizolar, oilaga alkogolizm, giyohvandlik, stress kabi tashqi omillarning ta’siri, shuningdek, alohida oila a‘zolarining giyohvandlik, nevrozlar kabi psixologik qiyinchiliklari va hayot bosqichlari bilan bog‘liq, ya’ni bolalar tug‘ilishi, o‘smirlikda uchraydigan psixologik muammolarni tadqiq qilishda o‘zaro hamkorlik va tajriba almashish zarurligi ta’kidlab o‘tildi.

Konferensiya materiallari asosida oila psixologiyasini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, oila va jamiyat, oila va mahalla munosabatlari bilan bog‘liq boy milliy an’analar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlarini, ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ommalashtirish, milliy oilaviy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini yuksaltirish va uning oilada uyg‘unlashuvini ta’minlash, oilaning pedagogik, psixologik, ijtimoiy-psixologik, etno-pedagogik, etno-psixologik muammolarini o‘rganish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, demografik xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish, oilani rejalashtirishni, uning salomatligining tibbiy-biologik asoslarini ilmiy-amaliy tadqiq etish, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng tatbiq etish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik mazmunini ishlab chiqish, oilada barkamol avlodni tarbiyalashda psixologik muhit barqarorligini ta’minlashning eng samarali, maqbul usullarini ishlab chiqish kabi masalalar mujassamlashgan.

Konferensiya materiallari asosida ilmiy to‘plam nashr etilgan.

## ПРЕСС-РЕЛИЗ

Работа, проделанная в нашей республике за последние пять лет, то есть на пути к построению нового Узбекистана, приобретает всё большую значимость и результаты, достойные веков. Особое внимание уделяется развитию сферы образования, особенно высшего. За этот период определены меры по реализации концепции «Новый Узбекистан – просвещённое общество».

Следует подчеркнуть, что сегодня роль и место частных учебных заведений в расширении охвата системы высшего образования и формировании альтернативной образовательной инфраструктуры в нашей республике возрастает. Частные вузы нашей страны, прежде всего, способствовали сокращению потока стихийных выездов на учёбу за рубеж. Деятельность частных высших учебных заведений создала здоровую конкурентную среду на рынке образовательных услуг. Безусловно, частное высшее учебное заведение заинтересовано в повышении своей репутации и имиджа, и сама жизнь доказала, что главный показатель – это трудоустройство выпускников в обществе и на рынке труда.

За последние годы “Profi University” за короткий срок завоевал своё место и статус в образовательной сфере Узбекистана. Этот университет добился ряда позитивных достижений в подготовке кадров, способных критически мыслить и улучшать свою жизнь и жизнь других посредством образования. В настоящее время в университете работают более 140 профессоров и преподавателей, в том числе 1 академик, 14 докторов наук (DSc) и 41 кандидат наук (PhD). Более 30 профессоров и преподавателей в области психологии и педагогики готовят докторские диссертации в качестве самостоятельных исследователей. Развитие международного сотрудничества в университете является одной из приоритетных стратегических задач. За короткий срок налажено взаимовыгодное сотрудничество с более чем 30 зарубежными высшими учебными заведениями и научно-исследовательскими организациями на основе меморандумов и соглашений. Университет ежегодно создает новые образовательные программы, способствуя удовлетворению потребности общества в высококвалифицированных специалистах.

Прошедшая сегодня в “Profi University” конференция на тему «Социально-психологические проблемы института семьи» – яркое подтверждение вышеизложенного. Эту конференцию можно назвать крупным международным событием, проводимым в рамках научной школы академика Гайрата Бахрамовича Шаумарова, действительного члена Академии наук Узбекистана, доктора психологических наук.

Более 30 зарубежных специалистов и более 300 профессоров, преподавателей и исследователей нашей республики представили научные статьи для участия в конференции. Это, в свою очередь, свидетельствует о большой заинтересованности в сохранении и развитии богатых и значимых национальных традиций, связанных с семьей, в развитии общества, их сочетании с общечеловеческими ценностями, повышении психологического содержания, глубоком укоренении святости семьи и брака в сознании подрастающего поколения.

На пленарном заседании конференции были заслушаны доклады зарубежных специалистов по актуальным вопросам семейной психологии, а также высоко отмечены достижения в области психологии в процессе интеграции Узбекистана в мировое сообщество. В частности, среди российских специалистов доктор психологических наук, профессор, заместитель директора по научной работе Института коррекционной педагогики РАО И.А.Коробейников рассказал о социально-психологических проблемах подготовки детей с ограниченными возможностями здоровья к семейной жизни, кандидат психологических наук О.А.Митина представила аналитические данные о психологических факторах, влияющих на формирование личности в семейной жизни, кандидат

психологических наук, доцент Белорусского государственного педагогического университета имени М.Танка Л.Н.Пузыревич раскрыла психологическое содержание формирования современной семьи, а старший научный сотрудник Института педагогики НАПН Украины, кандидат психологических наук В.П.Чудакова выделила важные особенности психологического здоровья личности и семьи.

Кроме того, бурные обсуждения среди участников конференции вызвали лекции действительного члена АН РУз, академика, ректора “Profi University” Г.Б.Шаумарова на тему «Социально-психологические проблемы и пути решения института семьи», доктора психологических наук, профессора В.М.Каримовой на тему «Психология семейной жизни в Узбекистане, духовная семья, факторы социальной защиты семей», доктора психологических наук Х.Абдусаматова на тему «О психологических синдромах, влияющих на эмоциональное благополучие личности», доктора психологических наук Э.С.Сулетьбаевой на тему «Актуальные проблемы подготовки каракалпакской молодежи к семейной жизни», доктора психологических наук, профессора К.Фарфиевой на тему «Психологический анализ изучения научно-инновационного мышления подростков», доктора психологических наук, профессора У.Кадырова на тему «Некоторые этнопсихологические особенности узбекской семьи».

Также на международной конференции состоялась научная дискуссия об актуальных проблемах института семьи, его причинах и факторах, о том, к каким социально-экономическим, социально-духовным, социально-психологическим осложнениям и последствиям может привести трансформация сферы искусства, если ее пустить на самотек. Укрепление института семьи, защита семьи местных коренных народов от различных неприятных трансформаций. Обсуждались пути сохранения национальных, общечеловеческих ценностей, которые служили семье веками, обеспечение здоровой психологической среды в семье, профилактика ряда заболеваний (с психогенной этиологией), повышение счастья и жизнерадостности народа Узбекистана, оказание психологической помощи семье и подготовка всей молодежи к семейной жизни. Научно обосновано на реальных примерах то, что семья, ее экономические, социальные, духовные и, самое главное, психогенетические факторы являются основой всех достижений в обществе. Поэтому было признано, что Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев уделяет большое внимание вопросу семьи.

В ходе дискуссий и анализов было отмечено, что в мировой семейной психологии существуют проблемы, которые ждут своего научного решения. Была подчеркнута необходимость сотрудничества и обмена опытом в изучении таких проблем, как трудности общения между членами семьи в условиях цифровизации, конфликты, возникающие на почве финансовых проблем, влияние внешних факторов на семью, таких как алкоголизм, наркомания, стресс, а также психологические трудности отдельных членов семьи, такие как наркомания, неврозы и трудности, связанные с жизненными этапами такие, как роды, подростковый возраст.

По материалам конференции были разработаны предложения и рекомендации по развитию семейной психологии. В частности, к числу вопросов относятся изучение и популяризация богатых национальных традиций, корней богатых национальных ценностей, наследия наших предков, значения общечеловеческих ценностей в национальном семейном воспитании и обеспечении их интеграции в семью, изучение педагогических, психологических, социально-психологических, этнопедагогических, этнопсихологических проблем семьи, изучение социально-экономического положения и демографических характеристик семьи на научной основе, научно-практические исследования в области планирования семьи, медико-биологических основ ее здоровья, разработка методических рекомендаций и их широкое внедрение в практику, развитие психологического содержания подготовки молодежи к семейной жизни, а также разработка наиболее эффективных и

приемлемых методов обеспечения стабильности психологической среды в семье при воспитании гармоничного поколения.

По материалам конференции издан научный сборник.